



O'ZBEK BOLALARINING SEVIMLI ADIBI

Omonqulova Zilola

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti boshlang'ich ta'lim yo'nalish 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston xalq yozuvchisi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Xudoyberdi To'xtaboyevning hayoti va ijodi haqida. Shuningdek maqolada adibning "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi", "Jannati odamlar", "Besh bolali yigitcha" romanlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Tagob tumani, 300 dan ortiq fleytonlar, "Besh bolali yigitcha", "Quyvonlar saltanati", "Eng yaxshi bolalar kitobi" mukofoti

Xudoyberdi To'xtaboyev - o'zbek bolalar adabiyotining zabardast vakili. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, O'zbekiston xalq yozuvchisi. Xudoyberdi To'xtaboyev 1932 yil 17- dekabr kuni Farg'ona viloyatining Katta Tagob tumanida dunyoga kelgan. Xudoyberdi erta yetim qolib, bobosi va buvisining qo'lida tarbiyalanadi. 1949 yil Qo'qon pedagogika institutini, 1955- yil Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) ni tamomlaydi. Ijodiy faoliyatini Farg'ona viloyatidagi maktabda dars berishdan boshlagan, keyinroq o'quv ishlari mudiri va maktab direktori lavozimlarida ishlaydi. 1958-yilda adib Toshkentga kelib ijodiy faoliyatini boshlaydi va keyingi 14 yil mobaynida "Toshkent oqshomi", "Sovet O'zbekistoni" gazetalarida 300 dan ortiq feletonlarini chop etadi. Shuningdek, "Guliston", "Sharq yulduzi", "Gulxan", "G'uncha", "Yosh kuch" jurnallarida, "Yosh gvardiya" va "Kamalak" bosma nashrlarida ijod namunalari bilan ishtirok etadi. 1958-yil qisqa vaqt mobaynida "Yosh gvardiya", "Sir fosh etildi", "Sehrli qalpoqa" kabi kitoblari omma e'tiboriga havola qilindi. 70-yillar boshida o'z ijodiy faoliyatini bolalar hayotini keng tasvirlagan asarlar yaratishga yo'naltirdi. Yozuvchi tarjimai holida bu qarorini quyidagicha izohlaydi: "Ruhiy dunyosi pok bo'lgan, tarbiyaga quloq soladigan, savob va gunohni bilishga intiladigan, ruhi go'zallikka talpinayotgan bolalar dunyosida ishlasam qanday bo'lar ekan deb o'ylay boshladim va qaror qabul qildim bolalar, o'smirlar dunyosiga paqqos o'tib ketdim". Haqiqatan ham u butun umrini shu bolalar va o'smirlarga bag'ishladi. Adib qalamiga mansub "Sariq devnim minib" (1968-yil), "Sariq devning o'limi" (1973-yil), "Omonboy va Davronboy sarguzashti" qissasi (1974-yil), "Besh bolali yigitcha" (1976-yil), "Yillar va yo'llar" (1983-yil), "Shirin qovunlar mamlakati" (1986-yil), "Mungli ko'zlar"



(1988-yil), "Jannati odamlar" (1996-yil), "Qiz bolaga tosh otmang" (2003-yil), "Qiz talashgan o'smirlar" (2010-yil), "Quyonglar saltanati" (2013-yil) kabi romanlari "Yangi ohangda kuylayotgan viloyat" (2013-yil hujjatli qissa), "Tagob qishloq ertaklari" (2016-yil), "Qaylarda qolding bolaligim" (2016-yil) singari asarlari ana shu xayrli faoliyat mevasidir. Adib qalamiga mansub "Mungli ko'zlar" romani uning birinchi romani hisoblanadi. Romanda mol-dunyoga berilgan ota-ona va ularning farzandlarining fojiali qismati haqida so'z yuritiladi. Asar bosh qahramon - Zafarning tilidan aytilgan. Adib oila boshiga tushgan tashvishlarni shu o'smirning dunyoqarashiga kelib tasvirlaydi. Bu esa o'z navbatida kitobning bolalar dunyosiga, ularning sof qalbiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Asarni o'qiyotgan kitobxon bola o'z tengdoshining taqdiriga befarq bo'la olmaydi, u kelganda kuladi, yig'laganda esa beixtiyor ko'ziga yosh oladi. Xudoyberdi To'xtaboyev romanga so'nggi nuqtani qo'yish uchun ko'p izlandi, misoli igna bilan quduq qazidi. Yozuvchi tinimsiz izlandi. Qidirayotgani xalq o'g'zaki ijodi xazinasida ekanligini qalbidan his etdi. Doston, ertak, topishmoqlarni qayta-qayta o'qidi. Xudoyberdi To'xtaboyevning hayoti va ijodi o'rganilsa uning ota-onadan yosh yetim qolib bobosi va buvisi qo'lida katta bo'lganini bilish mumkin. Adibning "Jannati odamlar" asarida ham bolakay bobosi Erkacholning qo'lida katta bo'ladi. Bu asarni o'qish davomida faqatgina asarning o'zi bilan cheklanib qolmaysiz balki qahramonlar tilidan aytilgan xalq o'g'zaki ijodining yorqin namunalari ham bahramand bo'lishingiz mumkin. Romanda Chor Rossiyasi tomondan aholining qiynoqqa solinganlari ayovsiz tasvirlangan.

Xudoyberdi To'xtaboyevning mashhur romanlaridan yana biri bu "Besh bolali yigitcha" romanidir. Asarda olti nafar farzandi bor oilaning urush yillarida boshidan o'tkazgan zahmatlari tasvirlangan. Oilaning katta farzandi Orifjon ukalari va singillari ham otalik, ham otalik qiladi. Ota sifatida ularning qornini to'yg'azishga harakat qilsa, ona sifatida ularning ko'ngliga qaraydi, injiqliklarini ko'taradi. Orifjonning xarakteridagi ba'zi bir jihatlar adibning «sariq devni minib» romanidagi yogimtoy Hoshimjonni esga tushiradi. Ularning sho'xligi ham, quvligi ham, xayolparastligi ham, adolatga intilishlari ham go'yo bir garashda birbirlariga aynan o'xshashdek bo'lib tuyuladi.



Adib
tavalludining
90 yilligiga
bag'ishlanadi

Xudoyberdi TO'XTABOYEV

Besh bolali yigitcha



Ammo «Besh bolali yigitcha» romanini sinchiklab o'qigan kitobxon bu xildagi o'xshashlikning juda ham yuzaki ekanligiga ishonch hosil qiladi. Bu farq avvalo hayotiy materialning o'zgachaligida, gahramon-larning turli sharoitlarda harakat qilishlarida, ularning bir-birlariga mutlago o'xshamaydigan yorgin tagdirlarining haggoniy yaratilganligida. «Besh bolali yigitcha» romanidagi voqealar Orifjonning hikoyasi orqali beriladi. Uning hikoyasi bilan tanishar ekansiz, gohida beixtiyor jilmayasiz, gahqah otib kulasiz, gohida urush yillaridagi kecha-yu kunduz tinimsiz mehnat qilgan vatanparvar odamlarning buyuk ishlariga tasanno aytasiz, gohida ko'pchilikdan ajralib golgan «ortiqcha» kishilarning qiliqlaridan jirkanasiz. Hech kimga sir emaski, bolalarning hayot va odamlar hagidagi tasavvurlari juda ham toza va musaffo bo'ladi. Ular borligni tabiiy holda qabul qiladi. shu sababli Orifjonning odamlar hagidagi hikoyalari kishini o'ylashga, fikrlashga undaydi. Mana uning dadasi. Bir o'zi «bitta traktorning ishini bemalol» bajaradigan bu odam armiyaga chagiruv gog'ozi kelganida kolxozdagi



ishining golib ketayotganligidan ko'ngli o'ksiydi. Tuni bilan urushdan qaytib kelguniga qadar yetib ortadigan o'tin tayyorlab chiqadi. Oyisining xatti-harakatlari va qikiqlariga bir e'tibor bering. Butun umri mehnat bilan o'tgan bu ayolning oyog'ida doimo «kerza etik, erkakiarning paxtali shinli, egnida serpaxta fufayka, boshida quloqchin, yuzlari kir, qo'llari loy» bo'lib yuradi. U eriga chaqiruv gog'ozi kelgarnda uni hijjalay-hijjalay o'qib chiqadi-da, huzur qilib non chaynayotgan Omonning kir boshiga yuzini bosib xayol surib ketadi. Uyqusizlikdan traktorning tagida qolib ketgan bu ayolning obrazi uzoq vagt kitobxonning xotirasida saqlanib qoladi. Adib hayotiy bo'yoqlar va ranglardan juda ham o'rinli foydalanadi. shu sababli romanda yaratilgan ayrim obrazlar va kartinalar yozuvchining mahorati tobora takomillashib borayotganligini ko'rsatib turibdi. Romandagi Parpi buva va O'ris xola obrazlari ham yozuvchi tomonidan alohida mehr-muhabbat bilan chiziladi. Ikkala obraz talqinida ham Xudoyberdi To'xtaboyev ijodiga xos eng yaxshi fazilatlar aks etgan. Qolaversa, bu obrazlar Orifjonning tasavvuri orqali beriladi. Orifjon bo'lsa Parpi buva bilan O'ris xolaning inson sifatidagi o'ziga xos fazilatlarini juda ham samimiy hikoya qiladi. Aytaylik Parpi buva - chin vatanparvar. U bir paytlar qo'lida qurol bilan jang qilgan. Oradan yillar o'tadi. Nemis-fashist bosenchilari Parpi buvaning nazarida «gironning har bitta o'qi aravaning gupchagidek keladi», 'o'sha giron deganlari juda zo'r bo'lsa, Ko'rshermatcha bo'lar-da», deydi u. U gironni yengish uchun frontda jang qilayotgan o'g'illariga zambarak sovg'a qilmogchi bo'ladi.



Adib ijodini o'rganish davomida "Sariq devni minib" va "Sariq devning o'limi" asarlariga alohida to'xtalib o'tmas bo'lmaydi. Sababi bu asarlar nafaqat



yurtimizda balki dunyo bo'ylab sevib o'qiladigan asarlardir. Birgina " Sariq devni minib " romani 24 tilga tarjima qilingan. Yurtimizda bu asarlar asosida filmlar suratga olingan. Film 2014-yilda katta sahnaga chiqqan. Asar sarguzashtlarni sevuvchi Hoshimjon obrazi tilidan aytilgan. Bosh qahramon Hoshimjon rolini Bunyod Rahmatullayev ijro etgan. U bolalarga xos soddaligi bilan kitobxon ko'nglidan joy oladi. "Sehrli qalpoqcha" ertak-qissasi - yozuvchining rus tiliga tarjima qilingan birinchi kitobi. Mazkur asar kitobxonga olam quvonch va xursandchilik onlarini hadya qiladi, degan umiddamiz. Ertak-qissa 1970-yilgi Butun ittifoq tanlovida "Eng yaxshi bolalar kitobi" mukofotiga loyiq topilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. To'xtaboyev X. Jonginam shartingni ayt. Qissa va hikoyalar. –T.: Yosh gvardiya, 1978.
2. To'xtaboyev X. Sariq devni minib. Uch qismli sarguzasht roman. – T.: Gv.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashryoti, 1977.
3. Sharafiddinov O. Botirlarning umri boqiy. Manba: Go'zallik izlab. –T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashryoti, 1985.
4. Shermuhammedov P. Ezgulik hissini tarbiyalab... Manba: Barchadan yaxshiroq hayot guli... –T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashryoti, 1983.
5. Akbar T. Opportunities to Form Spiritual Competence in Students of the 10-11th Class //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 160-167.
6. Rustamovich T. A. Islom Ta'limotlarda Shaxs Ma'naviyati Masalalari //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – T. 1. – №. 5. – C. 186-190.
7. Rustam o'g A. T. et al. Milliy o'quv dasturining hayotimizdagi o'rni //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 88-93.
8. Rustam o'g A. T. et al. XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA O 'QUVCHILARNING BILIMINI BAHOLASH METODOLIGIYASI //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 94-100.
9. Rustam o'g A. T. et al. Oliy ta'limda korrupsiyaga qarshi kurashish //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 101-109.